

**NAIM KARIMOV ILMIY TALQINIDA OYBEK IJODIY  
LABORATORIYASINING BIOGRAFIK ASOSLARI**

**Jonpo'latova Gulshoda Qobil qizi,**  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: gulshodajonpolotova@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Oybek ijodiy laboratoriyasining o'ziga xos jihatlari Naim Karimovning ilmiy talqinlari asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda adibning mutolaa madaniyati, ijodiy tafakkuri, kompozitsion rejalashtirish tamoyillari, tarixiy obraz yaratish mahorati, ijodiy konsentratsiyasi hamda badiiy tasavvur mexanizmlari biografik metod nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolaning metodologik asosini Naim Karimovning Oybek, Oybek va Zarifa asarlari hamda Zarifa Saidnosirovaning Oybegim mening xotiralari tashkil etadi. Tadqiqot natijasida Oybek ijodiy laboratoriyasi uzluksiz mutolaa, chuqur badiiy mushohada, kompozitsion tafakkur, ruhiy konsentratsiya va ijodiy muhit uyg'unligida shakllangan murakkab tizim ekani aniqlanadi. Shuningdek, Naim Karimovning biografik yondashuvi yozuvchi ijodining ichki mexanizmlarini ochishda muhim ilmiy imkoniyatlarga ega ekani asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Oybek, Naim Karimov, ijodiy laboratoriya, biografik metod, mutolaa madaniyati, badiiy tafakkur, kompozitsion tafakkur, tarixiy obraz, ijodiy konsentratsiya, Zarifa Saidnosirova.

**Аннотация.** В данной статье творческая лаборатория Ойбека исследуется на основе научных интерпретаций Наима Каримова. Анализируются культура чтения писателя, особенности его творческого мышления, принципы композиционного моделирования, мастерство создания исторических образов, механизмы художественного воображения и творческой концентрации в контексте биографического метода. Методологическую основу исследования составляют труды Н. Каримова «Ойбек», «Ойбек и Зарифа», а также мемуары Зарифы Саидносировой «Мой Ойбек». В результате исследования установлено, что творческая лаборатория писателя формировалась в единстве непрерывного чтения, художественного мышления, композиционной организации, интеллектуальной сосредоточенности и благоприятной творческой среды. Обосновывается также значимость биографического подхода Н. Каримова в изучении внутренних механизмов художественного творчества.

**Ключевые слова:** Ойбек, Наим Каримов, творческая лаборатория, биографический метод, культура чтения, художественное мышление, композиция, исторический образ, творческая концентрация, Зарифа Саидносирова.

**Abstract.** This article examines Oybek's creative laboratory through the scholarly interpretations of Naim Karimov. The study analyzes the writer's reading culture, creative thinking, principles of compositional planning, mastery of creating historical characters, artistic imagination, and creative concentration from the perspective of the biographical method. The methodological basis of the research includes Naim Karimov's works Oybek and Oybek and Zarifa, as well as Zarifa Saidnosirova's memoir My Oybek. The findings demonstrate that Oybek's creative laboratory was shaped through the interaction of continuous reading, artistic reflection, compositional thinking, intellectual concentration, and a supportive creative environment. The article also substantiates the significance of Karimov's biographical approach for revealing the internal mechanisms of literary creativity.

**Keywords:** Oybek, Naim Karimov, creative laboratory, biographical method, reading culture, artistic thinking, compositional planning, historical character, creative concentration, Zarifa Saidnosirova.

**Kirish.** O'zbek adabiyotshunosligida ijodkor shaxsiyati, uning dunyoqarashi va badiiy tafakkurining shakllanish jarayonlarini o'rganish masalasi doimo muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. Bunday tadqiqotlar orasida yozuvchi ijodiy

laboratoriyasini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asar faqat yakuniy estetik mahsul sifatida emas, balki murakkab ruhiy, intellektual va ijodiy izlanishlar natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida ham qimmatlidir. Shu jihatdan ijodiy laboratoriyani o'rganish adib mahoratining ichki mexanizmlarini, badiiy tafakkur harakatini hamda asar yaratilishining yashirin qatlamlarini ochish imkonini beradi.

Jahon adabiyotshunosligida ijodiy laboratoriya muammosi yozuvchi shaxsiyati, mutolaa madaniyati, estetik qarashlari, ijodiy tajribasi va badiiy tafakkurining o'zaro aloqadorligi doirasida tadqiq etib kelinadi. O'zbek adabiyotshunosligida ham mazkur yo'nalishda muayyan ilmiy tajriba to'plangan bo'lsa-da, ayrim ijodkorlar laboratoriyasi hali ham yangi metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etishni talab qiladi.

Ana shunday ijodkorlardan biri Oybekdir. XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi sifatida Oybek nafaqat shoir va romannavis, balki teran tafakkur egasi, tarixiy-badiiy tafakkur imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'targan san'atkor sifatida ham e'tirof etiladi. Uning "Qutlug' qon", "Navoiy", "Quyosh qoraymas" kabi asarlari o'zbek nasri taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi. Mazkur asarlarning yuksak badiiy saviyasi, obrazlar tizimi va psixologik teranligi adib ijodiy laboratoriyasini o'rganishni ilmiy zaruratga aylantiradi.

Oybek hayoti va ijodini o'rganishda akademik Naim Karimovning xizmatlari alohida o'rin tutadi. Olimning "Oybek", "Oybek va Zarifa" kabi tadqiqotlari adib biografiyasini yoritish bilangina cheklanmay, uning ijodiy tafakkuri, badiiy mahorati va asar yaratish jarayonlarini ham ochib beradi. Naim Karimov biografik materiallarni estetik tahlil bilan uyg'unlashtirib, Oybek shaxsiyati va ijodiy faoliyati o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ilmiy asosda talqin qiladi. Shu bois uning tadqiqotlari Oybek ijodiy laboratoriyasini rekonstruksiya qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Maqolaning maqsadi Naim Karimovning ilmiy talqinlari asosida Oybek ijodiy laboratoriyasining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida adibning mutolaa madaniyati, kompozitsion tafakkuri, tarixiy obraz yaratish tamoyillari, ijodiy konsentratsiyasi, badiiy tasavvur mexanizmlari hamda ijodiy muhit bilan bog'liq jihatlar biografik metod nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Oybek ijodiy laboratoriyasi masalasi alohida biografik-estetik muammo sifatida ko'rib chiqilib, Naim Karimovning Oybek haqidagi ilmiy talqinlari tizimli ravishda umumlashtiriladi. Natijada adib ijodining ichki mexanizmlari, badiiy tafakkur harakati va ijodiy mehnat madaniyati yangi ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o'rganish adabiyotshunoslikning muhim nazariy va amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo badiiy asarning yaratilish mexanizmlarini, ijodkor tafakkurining shakllanish qonuniyatlarini hamda estetik tajribaning badiiy matnga aylanish jarayonini tadqiq etishga xizmat qiladi. Shu bois ijodiy laboratoriya masalasi jahon va o'zbek adabiyotshunosligida

turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganib kelinmoqda [1, 83-b.].

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida mazkur masalaning nazariy jihatlariga ham e'tibor kuchaygan. Jumladan, D. To'rayeva ijodiy laboratoriyani yozuvchi mahoratini anglashning muhim vositasi sifatida baholaydi hamda ijod jarayonini o'rganish badiiy asarning ichki tabiatini chuqurroq tushunish imkonini berishini ta'kidlaydi [2, 67-68-b.]. Olimaning fikricha, ijodiy laboratoriya masalasi faqat adibning tarjimai holiga oid ma'lumotlar yig'indisi emas, balki uning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ijodiy izlanishlarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur yondashuv yozuvchi shaxsiyati bilan badiiy matn o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Oybek ijodi va mahoratini o'rganish masalasi o'zbek adabiyotshunosligida, avvalo, Matyoqub Qo'shjonov nomi bilan bog'liqdir. Adabiyotshunos olim Oybek asarlarining badiiy tabiati, xarakter yaratish mahorati va estetik xususiyatlarini tadqiq etish orqali oybekshunoslikning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biriga asos soldi. Usmonaliyeva A.X. qayd etganidek, Qo'shjonov adabiy tanqidni faqat baholovchi hodisa sifatida emas, balki ijodiy jarayonning faol ishtirokchisi sifatida talqin qilgan. Olimning «Adabiy tanqid ham ixtiro qiladi, ixtiro qilingan talantlarni ardoqlaydi» degan fikri uning adabiy-estetik konsepsiyasini ifodalovchi muhim nazariy xulosalardan biri hisoblanadi [7, 279-b.].

F. Odayeva va S. Yo'ldoshevalar ham Matyoqub Qo'shjonovning Oybek haqidagi tadqiqotlarini tahlil qilar ekanlar, uning adib ijodini faqat mazmun yoki g'oya nuqtayi nazaridan emas, balki badiiy mahorat, xarakter yaratish san'ati va yozuvchi individualligi bilan bog'liq holda o'rganganini ta'kidlaydilar [8, 563-b.]. Ayniqsa, olimning "Oybek romanlarida xarakterlarni tasvirlash mahorati" mavzusidagi tadqiqotlari va "Nafosat shaydosi" adabiy portreti Oybek ijodiy qiyofasining muhim jihatlarini yoritishda katta ahamiyat kasb etgan.

Biroq Qo'shjonov tadqiqotlarining asosiy e'tibori Oybek asarlarining poetik xususiyatlari va badiiy mahoratiga qaratilgan bo'lsa, akademik Naim Karimov tadqiqotlarida adib ijodini uning biografiyasi, ruhiy olami va ijodiy tajribasi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilish tendensiyasi kuchliroq namoyon bo'ladi.

Bu jihat B. Nazarov, A. Rasulov, Sh. Axmedova va Q. Qahramonovlarning "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi" asarida ham alohida qayd etilgan. Mualliflar Naim Karimovning ilmiy uslubiga baho berar ekanlar, shunday yozadilar: "Naim Karimov izlanuvchan va yuksak ilmiy-estetik did hamda qarashlarga ega munaqqid. U o'zining Cho'lpon, Hamza, Oybek, H.Olimjon, U.Nosir, Shayxzoda ijodiga doir tadqiqotlarida asarlarni o'rganish bilan cheklanmay, ularning ijodiy laboratoriyasiga ham chuqur kirib boradi, har bir san'atkorning xos uslub va mahorati yo'nalishlarini ilmiy-estetik, tarixiy-ma'rifiy jihatdan chuqur tahlil etadi" [6, 263-b.].

Mazkur baho Naim Karimov tadqiqotlarining metodologik xususiyatini aniq ifodalaydi. Olim biografik materiallarni shunchaki tarixiy fakt sifatida emas, balki badiiy

tafakkurning shakllanish manbai sifatida talqin qiladi. Shu sababli uning Oybek haqidagi asarlarida adibning mutolaa madaniyati, estetik qarashlari, ijodiy izlanishlari, ruhiy kechinmalari va asar yaratish jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi.

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda Oybek ijodiy laboratoriyasi masalasi Naim Karimovning ilmiy talqinlari asosida maxsus tadqiqot obyekti sifatida alohida o‘rganilmagan.

Aksariyat ishlarda Oybek hayoti, ijodi yoki badiiy mahoratining ayrim jihatlarini tahlil qilingan bo‘lsa-da, Naim Karimov tomonidan yoritilgan biografik materiallarning adib ijodiy laboratoriyasini ochishdagi ilmiy ahamiyati tizimli ravishda umumlashtirilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Oybek ijodiy laboratoriyasining shakllanish omillari va namoyon bo‘lish mexanizmlarini yoritishda biografik metod asosiy metodologik tamoyil sifatida qo‘llanildi. Biografik metod yozuvchi shaxsiyati, hayotiy tajribasi, intellektual shakllanish jarayoni va ijodiy faoliyati o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot davomida biografik faktlar adib hayotining oddiy tafsilotlari sifatida emas, balki uning badiiy tafakkuri va ijodiy laboratoriyasini yorituvchi ilmiy manbalar sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, maqolada interpretativ tahlil usulidan foydalanildi. Mazkur yondashuv Naim Karimov tomonidan keltirilgan biografik materiallarning estetik mazmunini ochish, ularning Oybek ijodiy tafakkuri bilan bog‘liqligini aniqlash hamda ijodiy jarayonning ichki mexanizmlarini izohlash imkonini berdi. Tadqiqotda fakt va talqin munosabati birligi tamoyiliga amal qilinib, har bir biografik kuzatuv adibning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq holda sharhlandi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metod ham qo‘llanildi. Bu usul yordamida Naim Karimovning ilmiy talqinlari Zarifa Saidnosirovaning xotiralari, zamondoshlarning guvohliklari hamda Oybekning ijodiy faoliyatiga oid boshqa biografik materiallar bilan o‘zaro qiyoslandi. Natijada ayrim faktlarning takror tasdiqlanishi va ularning adib ijodiy laboratoriyasini yoritishdagi ilmiy qimmatini aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy manbalarini Naim Karimovning “Oybek”, “Oybek va Zarifa” asarlari hamda Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” xotiralari tashkil etdi. Shuningdek, Oybekshunoslik va ijodiy laboratoriya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar hamda adabiyotshunoslikka oid nazariy tadqiqotlardan foydalanildi. Mazkur manbalar asosida Oybek ijodiy laboratoriyasining biografik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinib, ilmiy umumlasmalar chiqarildi.

**Natijalar va muhokama.** Naim Karimov ilmiy talqinida Oybek ijodiy laboratoriyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri mutolaa va ijod jarayonining o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Bu yerda mutolaa adibning dunyoqarashini shakllantirgan omil sifatidagina emas, balki bevosita ijodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi ichki mexanizm sifatida ham talqin etiladi. Oybek uchun kitob o‘qish va badiiy ijod bir-biridan

ajralgan ikki mustaqil faoliyat emas, balki yagona ruhiy-intellektual jarayonning o'zaro bog'liq bosqichlari hisoblanadi.

Zarifa Saidnosirovaning xotiralarida Oybekning mutolaaga munosabati alohida e'tibor bilan tasvirlanadi. U adibning kitob bilan ishlash usulini eslar ekan, shunday yozadi: "Oybek mutolaani g'oyat sevardi, kitob ustida zahmat chekish unga bir olam zavq-shavq bag'ishlar edi. Men buni Leningraddan keltirgan kitoblaridan ham bilardim. Plexanov, Gegel, Kant asarlari kechalari bilan o'qib chiqilgani uchun shaloqlangan, chizilgan, sahifa uchlari esa kemirilgan bo'lardi" [1; 111-b.]. Ushbu biografik detal Oybek mutolaasining passiv qabul qilish jarayoni bo'lmaganini ko'rsatadi. Kitoblarning ko'p marotaba varaqlangan, izohlar va belgilar bilan to'ldirilgan holati adibning matn bilan faol muloqotda bo'lganidan, o'qilgan fikrlarni ijodiy tafakkur doirasida qayta ishlaganidan dalolat beradi.

Naim Karimov ham Oybekning ma'naviy kamolotida mutolaaning tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Olimning ta'kidlashicha, adib ijodiy shakllanish jarayonida birgina adabiy maktab yoki muayyan yozuvchi ta'siri bilan chegaralanmagan. Bu haqda u: "Adolat haqqi aytish kerakki, Oybek 30-yillarda ham, keyin ham faqat Pushkin emas, Navoiy emas, Abdulla Qodiriy emas, boshqa buyuk so'z san'atkorlari tutgan "nur to'la qadahlar"ni ham baravar simirib va simqorib o'sdi" [2; 79-b.] deb yozadi. Mazkur kuzatish Oybek mutolaasining keng qamrovli xarakterini ochib berish bilan birga, uning ijodiy laboratoriyasi turli adabiy va estetik tajribalar sintezida shakllanganini ham ko'rsatadi.

Oybek faoliyatida mutolaa va ijodning uzviy bog'liqligi Zarifa Saidnosirova keltirgan yana bir xotirada yanada yaqqol namoyon bo'ladi: "To'g'ri, Oybek ko'p mutolaa qiladi. Oqshomdan tongga qadar kitob ustida o'tiradi. Meni ham shunga undaydi, o'rgatadi. U mutolaadan charchagandagina she'r yozishga tutiladi. She'r yozib tugatgach, yana mutolaaga o'tadi. Men undagi ish qobiliyatining shu qadar zo'rligiga hayratlanaman" [2; 137-b.]. Ushbu guvohlik Oybek ijodiy laboratoriyasining ichki ritmini ochib beradi. Mutolaa adib tafakkurini yangi fikr va tasavvurlar bilan boyitgan bo'lsa, badiiy ijod o'sha intellektual tajribaning estetik ifodasiga aylangan. Shuning uchun ham o'qish va yozish jarayonlari bir-birini almashib turuvchi yagona ijodiy sikl sifatida namoyon bo'ladi.

Naim Karimov keltirgan yana bir biografik detal bu fikrni tasdiqlaydi. Adib umrining so'nggi yillarida ham yosh iste'dodlar taqdiri bilan qiziqib, ularning ma'naviy kamoloti haqida qayg'urgan. Abdulla Oripov xotirasida keltirilishicha, Zarifa Saidnosirova Oybekning yoshlik yillarini eslar ekan: "Oybek sizlarning yoshingizda kitob o'qishdan boshqa narsani bilmasdi, Navoiy, Pushkin, Gyote, Dantelarni juda ko'p mutolaa qilardi, kinoga ham kirardi", degan edi [3; 178-b.]. Ushbu xotira Oybek nazarida mutolaaning shaxsiy qiziqish emas, balki ijodkor kamolotining zaruriy sharti sifatida qaralganini ko'rsatadi. Muhimi, bu qarash adib faoliyatining turli bosqichlarida o'zgarmagan va umrining oxirigacha uning estetik e'tiqodlaridan biri bo'lib qolgan.

**Muallif va qahramon ruhiyatining badiiy uyg'unligi.** Naim Karimov tadqiqotlarida Oybek ijodiy laboratoriyasining muhim jihatlaridan biri muallif shaxsiyati va yaratilayotgan obraz ruhiyati o'rtasidagi murakkab ijodiy aloqalarni yoritish bilan bog'liqdir. Olimning talqinicha, yirik badiiy obrazlar faqat tarixiy hujjatlar yoki tashqi kuzatishlar asosida yaratilmaydi. Ijodkor o'z qahramonining ichki dunyosini badiiy jihatdan qayta yaratish jarayonida muayyan darajada uning ruhiy olami bilan uyg'unlashadi. Shu sababli tarixiy shaxsga bag'ishlangan asarlarda ham muallifning estetik ideallari, hayot haqidagi qarashlari va ruhiy tajribasi muhim rol o'ynaydi.

Bu jihat, ayniqsa, Oybekning "Navoiy" romani misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Naim Karimov mazkur asarni tahlil qilar ekan, fransuz adibi Gyustav Floberning mashhur: "Emma — mening o'zim" degan fikrini eslaydi va Oybek bilan Navoiy munosabatini shu nuqtayi nazardan izohlaydi. Olim yozadi: "Fransuz adibi G. Floberning "Emma — mening o'zim", degan mashhur iborasi bor. Oybek ham Navoiy to'g'risida shunday deyishi mumkin. U ulug' shoir obrazida o'zining ruhiy olamini, o'zining nafaqat XV asr, balki XX asr voqealariga ham munosabatini ifodaladi" [3; 103-b.].

Mazkur kuzatish Naim Karimovning Oybek ijodiy laboratoriyasi haqidagi eng muhim ilmiy xulosalaridan biri hisoblanadi. Olimning fikricha, Oybek Navoiy obrazini yaratishda faqat tarixiy manbalarga tayanib qolmagan. Tarixiy hujjatlar, ilmiy ma'lumotlar va manbashunoslik materiallari obrazning tashqi qiyofasini tiklash imkonini bergan bo'lsa, uning ichki dunyosini jonlantirishda yozuvchining shaxsiy ruhiy tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Naim Karimov bu fikrni davom ettirib shunday yozadi: "Oybek tarix sahifalarida qolgan hujjatlarga qanchalik suyanmasin, genial shoir dunyoqarashini, uning insoniy kechinma va ijodiy intilishlarini ifodalar ekan, o'z qalbining, o'z hayajonining mavjlarini ham asar to'qimasiga dadil olib kirdi" [3; 113-b.]. Ushbu mulohaza muallif va qahramon munosabatining ijodiy mohiyatini ochib beradi. Oybek Navoiy shaxsiyatini tashqaridan kuzatuvchi tarixchi emas, balki uning ma'naviy olamiga kirishga intilgan san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Olimning ta'kidlashicha, aynan shu ruhiy yaqinlik Navoiy obrazining badiiy ishonchliligini ta'minlagan. Agar yozuvchi tarixiy shaxsga faqat hujjat va faktlar orqali yondashganida, obrazning ichki harakati, ruhiy iztiroblari va ijodiy kechinmalarini bu qadar jonli tasvirlay olmagan bo'lardi. Demak, badiiy haqiqat tarixiy haqiqatning oddiy takrori emas, balki muallif tafakkuri orqali qayta yaratilgan estetik voqelik sifatida yuzaga keladi. Naim Karimov muallif va qahramon ruhiyatining uyg'unlashuvini romandagi ijod jarayoni tasvirlari misolida ham ko'rsatadi. U Oybekning Navoiy ijodiy holatini tasvirlash mahoratini tahlil qilar ekan, quyidagi satrlarga e'tibor qaratadi: "Ijod dardi — qalbning qa'rida uyg'onib, butun vujudni larzaga solgan bu og'riq Navoiy uchun eng shirin lazzat, ona allasi kabi yupantiruvchi, quyosh kabi hayot va quvonch bag'ishlovchi bir kuch edi" [3; 115-b.]. Naim Karimovning fikricha, bunday tasvir tasodifan yuzaga kelmagan. Yozuvchi ijod jarayonining ruhiy tabiatini shunchalik

nozik ifodalay olgan ekan, demak, u mazkur holatni o‘z ijodiy tajribasi orqali ham chuqur his etgan. Shu ma’noda Navoiy ijodiy kechinmalari tasvirida Oybekning shaxsiy ijodiy tajribasi ham bilvosita aks etadi.

Biografik metod nuqtayi nazaridan qaralganda, mazkur holat muallif va qahramon munosabatining murakkab tabiatini ko‘rsatadi. Bu yerda gap tarixiy shaxsni muallifga tenglashtirish haqida emas, balki ijodiy identifikatsiya hodisasi haqida bormoqda. Muallif o‘z qahramonining ruhiy olamini tushunishga intilar ekan, unga o‘zining estetik qarashlari va ma’naviy tajribasi orqali yaqinlashadi. Natijada tarixiy obraz nafaqat tarixiy davrning, balki uni yaratgan san’atkor ruhiyatining ham muayyan qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi.

**Ijodiy muhit va ijodkor mehnatining tashkiliy asoslari.** Naim Karimov tadqiqotlarida Oybek ijodiy laboratoriyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida adibning ijodiy mehnat madaniyati va ijod uchun yaratgan muhitiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Olimning kuzatishicha, Oybek ijodni ilhomning tasodifiy natijasi deb emas, balki muntazam mehnat, qat’iyat va ruhiy-intellektual safarbarlik talab qiladigan jarayon deb tushungan. Shu sababli uning ijodiy laboratoriyasida mehnatsevarlik, matnga sadoqat va ijodiy intizom alohida o‘rin egallaydi. Bu jihat, ayniqsa, adibning Pushkin asarlarini tarjima qilish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Naim Karimovning yozishicha, Oybek Chimyonda ishlagan kechlarida Pushkin tarjimasini ustida favqulodda mas’uliyat bilan mehnat qilgan. Olim bu haqda shunday yozadi: “Oybek tarjima ustida berilib ishladi. U ijodiy ishga shu qadar g‘arq bo‘lib ketar ekanki, hatto allaqachon tun oqqani va tong otganidan ham bexabar bo‘lib, o‘tovdagi shamning madorsiz nurini o‘chirmas ekan” [7; 75-b.]. Ushbu holat adibning ijodiy ishga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Uning uchun tarjima ham mustaqil badiiy ijod darajasidagi mas’uliyat va fidoyilikni talab qiladigan jarayon bo‘lgan. Naim Karimov keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, Oybekning ish jarayoni ba’zan shu qadar davomiy va intensiv kechganki, bu holat atrofdagilarni ham hayratga solgan. Olimning yozishicha, adib tun bo‘yi yalangoyoq holda ishlashni davom ettirar, muttasil harakatda bo‘lib, matn ustida o‘ylardi. Natijada o‘tov ichidagi yerda uning qadamlari iz qoldirgan. Bu haqda Naim Karimov shunday yozadi: “Hikoya qilishlaricha, u o‘tov ichida yalangoyoq bo‘lib, hamma narsani unutgan holda tongga qadar Pushkindan bosh ko‘tarmay qattiq ishlar ekan. Hatto oyoqlarining kuchi, zarbi va pinhoni harakatidan yerda chuqur iz qolar ekan. Hazilkash do‘stlar Oybek oyoqlarining yerga o‘yilgan ana shu “qolipi”ni tomosha qilish uchun uning o‘toviga atayin kirib chiqar ekanlar” [8; 75–76-b.].

Mazkur epizod tashqi jihatdan qiziqarli biografik detal bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida Oybek ijodiy laboratoriyasining muhim xususiyatini yoritadi. Bu yerda asosiy masala yerda qolgan izlar emas, balki yozuvchining ijodiy mehnatga to‘liq safarbar bo‘la olish qobiliyatidir. Adibning tun bo‘yi bir matn ustida ishlashi, vaqt va makon hissini unutishi uning ijodga favqulodda darajada mas’uliyat bilan yondashganidan dalolat beradi.

Oybek ijodiy laboratoriyasini tavsiflovchi yana bir muhim detal shiypun epizodi

bilan bog‘liq. Naim Karimovning qayd etishicha, adib ijod uchun alohida muhit yaratishga intilgan va imkon qadar tashqi ta’sirlardan xoli bo‘lgan makonda ishlashni afzal ko‘rgan. Zarifa Saidnosirova ham o‘z xotiralarida Oybek uchun shiypon oddiy dam olish joyi emas, balki ijodiy tafakkur va mushohada makoni vazifasini bajarganini ta’kidlaydi [5; 70-b.; 4; 156-b.]. Bu holat yozuvchi faoliyatida ijodiy muhitning naqadar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Biografik materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Oybek ijodiy laboratoriyasida mehnat va ilhom bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Aksincha, ilhom muntazam mehnat jarayonida yuzaga keladigan ijodiy holat sifatida namoyon bo‘ladi. Adibning mutolaa qilish, tarjima ustida ishlash, qo‘lyozmalarni qayta ishlash va tarixiy materiallarni o‘rganishga sarflagan vaqti uning ijodni professional faoliyat sifatida anglaganidan dalolat beradi.

Naim Karimov talqinida Oybekning ijodiy mehnat madaniyati uning badiiy yutuqlarining muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Yirik romanlar, mukammal tarjimalar va chuqur badiiy umumlashmalar ortida favqulodda iste’dod bilan bir qatorda ulkan mehnat, qat’iyat va o‘z ustida tinimsiz ishlash madaniyati ham mavjud edi. Shu jihatdan Oybek ijodiy laboratoriyasi iste’dod va mehnat uyg‘unligida shakllangan murakkab ijodiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Naim Karimovning Oybek hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari adib ijodiy laboratoriyasini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Olim biografik materiallarni shunchaki tarixiy ma’lumot sifatida emas, balki yozuvchi badiiy tafakkurining shakllanish manbalarini yorituvchi estetik hodisa sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan uning Oybek haqidagi tadqiqotlari adib ijodining tashqi natijalarini emas, balki mazkur natijalarni yuzaga keltirgan ichki ijodiy mexanizmlarni anglash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida Oybek ijodiy laboratoriyasining bir necha muhim tarkibiy qismlari aniqlandi. Avvalo, mutolaa adib ijodiy faoliyatining asosiy ma’naviy-intellektual tayanchi bo‘lib xizmat qilgan. Naim Karimov va Zarifa Saidnosirova keltirgan biografik materiallar Oybekning keng qamrovli mutolaa madaniyati uning dunyoqarashi, estetik qarashlari hamda badiiy tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Adib faoliyatida mutolaa va ijod bir-birini to‘ldiruvchi yagona jarayon sifatida namoyon bo‘lgan.

Tahlillar natijasida Oybekning tarixiy obraz yaratish tamoyillari ham muallif shaxsiyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllangani ma’lum bo‘ldi. Xususan, “Navoiy” romanida muallif va qahramon ruhiyatining badiiy uyg‘unlashuvi tarixiy shaxs obrazining ichki olamini ishonarli va ta’sirchan tasvirlash imkonini bergan. Naim Karimov talqinida bu holat tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatning ijodiy sintezi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari Oybek ijodiy laboratoriyasida ijodiy muhit va mehnat madaniyati ham alohida o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Chimyondagi tarjima tajribasi, Pushkin asarlari ustidagi mashaqqatli mehnat, shiypon bilan bog‘liq xotiralar hamda yozuvchining ish

uslubiga oid biografik dalillar iste'dod va mehnat uyg'unligi uning ijodiy muvaffaqiyatlarining muhim asoslaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi.

Demak, Naim Karimovning Oybek haqidagi ilmiy talqinlari adib ijodiy laboratoriyasini rekonstruksiya qilish imkonini beruvchi noyob manbalar tizimini tashkil etadi. Ushbu tadqiqot natijalari Oybek ijodiy laboratoriyasining mutolaa madaniyati, kompozitsion tafakkur, muallif va qahramon ruhiyati uyg'unligi, ijodiy konsentratsiya hamda mehnat madaniyati kabi tarkibiy qismlar asosida shakllangan murakkab va yaxlit tizim ekanini ko'rsatdi. Shu jihatdan Naim Karimovning biografik yondashuvi nafaqat Oybek ijodini, balki umuman yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o'rganishda samarali ilmiy metodologik imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
2. To'rayeva D. Yozuvchi ijodiy laboratoriyasi va estetik talqin masalasi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – Vol. 3, No. 10. – B. 3–8.
3. Karimov N. Oybek. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – 185 b.
4. Saidnosirova Z. Oybegim mening: xotiralar / Nashrga tayyorlovchi N. Karimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 256 b.
5. Karimov N. Oybek va Zarifa. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – 127 b.
6. Nazarov B., Rasulov A., Axmedova Sh., Qahramonov Q. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 312 b.
7. Usmonaliyeva A. X. Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy merosida mahorat masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – B. 276–279.
8. Odinayeva F. Z., Yo'ldosheva S. A. Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-tanqidiy qarashlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – B. 562–566.